



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



**O'QUVCHILARDA MILLIY VA UMUMMADANIY KOMPETENSIYALARNI
RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI**

Haydarova Dilnozaxon Elmurot qizi

Qo'qon davlat universiteti 3-kurs tayanch doktoranti

dilnozaxonhaydarovaa@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ta'lim jarayonida zamonaviy yondashuvlar asosida o'quvchilarga milliy va umummadaniy kompetensiyalarni singdirish, badiiy asarlar orqali milliy qadriyatlar hamda milliy tafakkurni shakllantirish metod va usullari haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Adabiy tafakkur, ta'lim, zamonaviy metodlar, milliy immunitet, xalq og'zaki ijodi, kompetensiya, milliy qadriyat, konstruktivizm.*

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimiz ta'lim tizimida kompetensiyaga asoslangan yondashuv asosida o'quvchilarga bilim berish va shu asnosida ulardagi adabiyot darsiga bo'lgan muhabbatni uyg'otish orqali milliy va umummadaniy kompetensiya borasida ko'nikma va malakani shakllantirish dolzarb masalalardan biri deb hisoblaymiz.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham "yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash, ularni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo'ravonlik va shafqatsizlik g'oyalaridan himoya qilish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan¹. Mana shunday vazifalarni amalga oshirish uchun o'quvchilarda milliy va umummadaniy dunyoqarashni shakllantirish tizimini takomillashtirish vazifalari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ta'lim va tarbiyani rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar hayot davomidagi ta'lim nuqtai nazaridan o'quvchilar ishtirokidagi uzluksiz ravishda mazkur kompetensiyani rivojlantirish jarayonlariga asoslanishi kerak. Buni amalga oshirishda esa maktab adabiyot o'qituvchilarining roli juda katta. Ana shu muallimlarga bolaning ongida milliy qadriyatlarga bo'lgan hurmatni, mehrni hikoyalar, qissalar orqali uyg'ota olishi mumkin. Bunday deyishimizga yetarlicha asos va sabab bor. Chunki o'quvchilar kunning teng yarmini aynan o'zi tahsil olayotgan maktabida o'tkazadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Har qaysi davlat har qaysi xalq intellektual salohiyati, yuksak ma'naviyati bilan qudratlidir"².

Materiallar va metodlar. Ma'lumki, bugun milliy va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirish ta'lim tizimining eng muhim bo'g'inlaridan biriga aylandi, desak shubha yo'q.

¹ Sh.M. Mirziyoyev /2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida, 28.01.2022, PF-60-son.

² Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -Toshkent, O'zbekiston, 2016. -56b.



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



Ta'lim jarayonida milliy va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirish umumta'lim maktablaridagi fanlar ichida adabiyot fanining asosiy vazifasi bo'lib, muallimlar o'quvchilarga nafaqat nazariy bilimlarni yetkazish, balki ular orasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishi darkor. Milliy va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirish orqali ta'lim jarayonida o'quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy mas'uliyatini oshirish, ular orasida hamjihatlik, millatlararo bag'rikenglik va milliy o'zlikni anglash tuyg'ularini shakllantirishga erishish mumkin. Shu bois, adabiyot darslaridan tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayonida mazkur kompetensiyalarni rivojlantirish uchun zamonaviy metodlar va yondashuvlarni ishlab chiqish hamda adabiy ta'limga joriy etish muhim ahamiyatga egadir.

Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarida milliy va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishda adabiyot darsliklarida berilgan badiiy matnlar va ular orqali milliy qadriyatlarning ulug'lanishi zamirida o'sib kelayotga yosh avlodni ma'nan sog'lom, vatanparvar va har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

“Adabiyot darslari orqali o'quvchilarda milliy va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirish. (5-7-sinf adabiyot darsliklari misolida)” deb nomlangan dissertatsiya ishimizning tajriba-sinov ishlari misolida yuqorida keltirilgan nazariy ma'lumotlar hamda namunaviy dars ishlanmalarining natijalarini ko'rish mumkin.

Biz bilamizki, o'zbek xalqi azaldan kamtarligi, bosiqiligi, qanoatliligi, hayoliligi bilan har doim boshqa xalqlardan ajralib turadi. “Kamtarga kamol, manmanga zavol” degan naql bejizga aytilmagan. Alisher Navoiy o'zining “Hayrat ul abror” dostonida: “Agar senga osmonning kuch - g'ayrati nasib bo'lsa ham, yer yuzida kamtarlikni tanla. G'am –g'ussa yuki seni tog'dek ezib tursa ham, uning ostida tuproqdek tura ber. Boshingga toshlar yomg'irdek yog'lsa ham binafsha kabi boshingni yuqori tutib tura ber”³. Shoir bu jummalarni keltirish orqali yoshlarni takabburlikdan, manmanlikdan qaytarishga ishora qilgan. Aynan maktab darsliklarida Navoiyning ushbu pandnoma ruhidagi asarining keltirilishi ham bejiz emas. Biz Navoiyning qaysi asariga murojaat qilmaylik ularda har doim sharqona tarbiyaning nafasi ufurib turadi. Hattoki Navoiyning qit'a, tuyuqlarida sharqonalikni, komil inson bo'lishga davat qilinganini ko'rishimiz mumkin.

Ota-onaning ko'nglini olish, har doim xizmatida shay turish, ko'ziga tik qaramaslik har bir farzand uchun ham farz, ham qarzdir. Ularning duolarini olgan farzandlar hech qachon kam bo'lmaydilar. Alisher Navoiy hazratlarining “Otang oldida boshingni fido qilib, onang uchun jismingni sadaqa qilsang arziydi” degan nasihati barcha yoshlarning shiori bo'lishi, amaliy dastur etib berilishi lozim. Afsuski, hayotda bunga amal qilmaydigan kimsalarning topilishi achinarli holatdir. Asrlar mobaynida shakllangan va hayotimiz mazmuniga aylanib qolgan insoniy fazilatlar va qadriyatlar har doim alohida qimmatga egadir. Jumladan, sabr –toqatlik, qanoatlilik. “Sabr qilsang g'o'radan halvo bitadi” degan naql ham bejiz aytilmaganligi barchamizga ayondir. Ushbu qanoatlilik timsolini biz O'tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari”

³ Tuxtayev.O.X. Tarbiya jarayonida milliy qadriyatlarning o'rni. Uslubiy qo'llanma. Toshkent: Qamar media, 2022. – 43 b.



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



asaridagi “Qanoat“ hikoyasi qahramoni misolida ko‘rishimiz mumkin. Hikoyada o‘zbek ayolining matonati, barcha narsaga ko‘nikib ketishi sabr – qanoatlilik fazilatlarini ulug‘langan bo‘lsa, hikoyaning ikkinchi qahramoni “Kelinoyi” deb murojaat qilinadigan ayol orqali noshukrlik, barcha narsaga noliyverish singari salbiy fazilatlar qoralangan. Biz mana shu singari hikoyalar, qissalarni bolalarga o‘qitish orqali ularning ongida salbiy va ijobiy fazilatlar haqida tushunchalarni shakllantira olamiz. Xalqimizda “Qanoatli odam – odamlarning yaxshisidir, qanoatli odam boylarning boyidir” degan ibratli fikrlar bejizga aytilmagan.

Darhaqiqat, xalqimiz azal – azaldan axloqiy fazilatlarga boy xalqlardan biri bo‘lgan. Ajdodlarimiz farzandlarini tarbiyalar ekanlar, ularning xulq-atvoriga, gap-so‘zlariga, kishilar oldida o‘zlarini qanday tutishlari, nimalar haqida fikrlashib,

kimlar bilan muloqotda bo‘layotgani, o‘z fikr-mulohazalarini qanday so‘zlar orqali ifodalashga urunyotganiga juda katta e‘tibor qaratganlar. Ularning ongida sog‘lom fikrlarni, milliylikni shakllantirishda badiiy adabiyotdan unumli foydalanganlar.

Xulosa. Bugungi murakkab globallashuv sharoitida ma‘naviyatimizni izdan chiqarish maqsadida xorijdan o‘zanini yo‘qotgan, selday oqib kelayotgan zararli g‘oyalarga qarshi faqat milliy badiiy adabiyotgina milliy immunitet hosil qila olishi mumkin. Chunki adabiyot ko‘ngildan paydo bo‘lib, ko‘ngillarga singadi⁴. Barchaga ma‘lumki, inson tafakkuri, dunyoqarashi, olamni bilish darajasi uning so‘zlayotgan nutqidan ma‘lum bo‘ladi. Og‘zaki nutq shakllangan bashariyat ahli keng tafakkurga, keng dunyoqarashga, yetuk salohiyatga ega bo‘ladi. Bu o‘rinda inson nutqi avval maktabgacha ta‘lim muassasasida, undan so‘ng umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida rivojlantiriladi. "Fikrlash jarayoni,-deb yozadi

L. Vigotskiy,-bolaning ota-onasi bilan muloqotidan boshlanadi. Mustaqil fikrlash esa bu suhbatlarni bola “yutib”, o‘zicha “hazm qila” boshlaganidan so‘ng shakllana di”⁵. Bu qarashga tayanib, shunday xulosa chiqarish mumkinki, fikrlash bevosita o‘z yo‘naltiruvchi kuchi, maqsadi, usullariga ega bo‘lgandagina mustaqil faoliyatga aylanadi. 5-7-sinf o‘quvchilarida yoshga doir xarakter va xususiyat rivojlanishi bilan birga ularda kommunikativlik ham rivojlanib boradi.

O‘quvchilarda atrofdagilar: ota-onasi, do‘stlari, ustozlari bilan munosabatga kirishish ehtiyoji ortib boradi. Shu bilan birga, ularda nutqiy ko‘nikma rivojlanadi.

5-7-sinf o‘quvchilari nafaqat asar haqida o‘z bilganlarini, asar haqida o‘z dunyoqarashini namoyon qillishga o‘rgatib boriladi. O‘qituvchi o‘quvchilar bilan o‘zaro hamkorlikni tashkil qilishidan avval 5-7-sinf o‘quvchilariga adabiyot darslarida beriladigan milliy va umummadaniy kompetensiyalarni yaxshi bilib olishi shart. Ular quyidagilar:

- o‘zgalarga nisbatan mehr-muruvvat, saxiylik, o‘zgalarning dunyoqarashi, diniy e‘tiqodini hurmat qilish;
- milliy mafkuraning milliy, umuminsoniy tamoyillarini va vazifalarini bilish;

⁴ Husanboyeva Q. O‘quvchi ma‘naviyati va adabiyot darslarida mustaqil fikrlash.-Toshkent: 2008.

⁵Выготский Л.С. Воображение и творчество и детском возрасте. -Москва: «Просвещение».1991;



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



- milliy va umuminsoniy qadriyatlamini ajrata bilishdir.
- xalqning tarixiy, ma'naviy merosini avaylab asrash, an'ana va marosimlarini hurmat qilish;
- milliy, umuminsoniy tamoyillarini va vazifalarini bilish;
- umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan urf-odatlar, marosimlar, milliy-madaniy an'analarni bilish va unga hurmat bilan munosabatda bo'lishdir. Yangi pedagogik texnologiyalar xilma-xil bo'lib, qaysi metodni tanlash o'qituvchining o'tayotgan mavzusi, darsning maqsadi va vazifalariga bog'liq⁶. Ushbu fikrlarni umumlashtirgan holda shuni aytish mumkinki, milliy va umummadaniy kompetensiyalarni mazmun-mohiyati bilan birga o'quvchilar ongiga singdira olsak ta'lim-tarbiya sohasida yetarli darajada ijobiy natijalarga erishgan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Sh.M. Mirziyoyev /2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida,28.01.2022, PF-60-son.
2. Mirziyoyev Sh.M.Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.-Toshkent, O'zbekiston,2016.
3. Tuxtayev.O.X. Tarbiya jarayonida milliy qadriyatlarning o'rni. Uslubiy qo'llanma. Toshkent: Qamar media, 2022.
4. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. "Ta'lim to'g'risida". O'RQ-637, 23.09.2020.
5. Husanboyeva Q. O'quvchi ma'naviyati va adabiyot darslarida mustaqil fikrlash.- Toshkent: 2008.
6. Выготский Л.С. Воображение и творчество и детском возрасте. -Москва: «Просвещение».1991;
7. Mirqosimova M. O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. Monografiya.-T.:Fan, 2006.
8. Fozilova M.Adabiyot darslarida adabiy-nutqiy kompetensiyalarni farqlab shakllantirish metodikasi (nasriy asarlar misolida) pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)...diss - Chirchiq, 2022.
9. Ro'ziyeva D. va boshq. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi.-T.: Nizomiy nomidagi TDPU.2013.
10. <https://uz.wikipedia.org>

⁶ Fozilova M.Adabiyot darslarida adabiy-nutqiy kompetensiyalarni farqlab shakllantirish metodikasi (nasriy asarlar misolida) pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)...diss-Chirchiq,2022.-B.158.